

СЎЗ САЊАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

6 ЖИЛД, 2 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 6, НОМЕР 2

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 6, ISSUE 2



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№2 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2023-2>

Бош муҳаррир:
Тўхтасинов Илҳом
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:
Тухтасинов Илхом
д.п.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:
Tuhtasinov Ilhom
DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўғли
ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил
ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммаед
к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт
Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар
ф.ф.д. (Грузия)

Юсупов Ойбек
масбул котиб, доцент (Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр
академик. (Узбекистан)

Якуб Умар оглы
д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Миннуллин Ким
д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Керимов Исмаил
д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Куренов Рахыммаед
к.ф.н. (Туркменистан)

Кристофер Жеймс Форт
Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мирзаев Ибодулло
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Балтабоев Ҳамидулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дустмухаммедов Хуршид
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Лиходзиевский А.С.
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Сиддикова Ирода
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Шиукашвили Тамар
д.ф.н. (Грузия)

Юсупов Ойбек
отв. секретарь, доцент (Узбекистан)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov
academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort
University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar
Doc. of philol. scien. (Georgia)

Yusupov Oybek
Ass. prof. (Uzbekistan) - Senior Secretary

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

| | |
|---|-----|
| 18. Abduvaliyev Maxamatjon Arabovich INGLIZ TILIDA TO‘SIQSIZLIK SEMANTIKASINI IFODA ETUVCHI OLMOSHLAR VA BOG‘LOVCHILAR..... | 118 |
| 19. Ergashova Baxora Sayfillo qizi ITALYAN TILIDA MAQOLLARNING SEMANTIK VA STRUKTURAVIY TAHLILI..... | 124 |
| 20. Ziyayeva Shokhodat Nurmatovna THE SURVEY ON NEW PERSPECTIVES IN MEDIA EDUCATION..... | 128 |
| 21. Ravshanov Olim Poyonovich ADABIY MANBALAR – TARIX KO‘ZGUSI..... | 133 |
| 22. Gazieva Shaxnoza Abduvasievna ERGATIV FE‘LLARNING TADQIQIGA OID FIKR, MULOHAZALAR..... | 138 |
| 23. Дилноза Баходировна Буронова ТОҒАЙ МУРОД УСЛУБИГА ХОС МИЛЛИЙ ВА УМУМБАШАРИЙ АНЪАНАЛАР..... | 142 |
| 24. Alisher Rustamov Abduhakimovich O‘ZBEKISTONDA INGLIZ TILI XORIJIY TIL SIFATIDA O‘RGATILADIGAN (EFL) SINFLARDA IKKINCHI TIL PRAGMATIK KOMPETENSIYASI..... | 147 |
| 25. Niyazova Dildora Furqatovna NUTQNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI..... | 151 |
| 26. Ibodova Malika Gulmurodovna O‘ZBEK TILIDA “SHAXS MA’NAVİYATI” UMUMIY SEMALI ATOV BIRLIKLARINING PARADIGMATIK XUSUSIYATLARI..... | 156 |
| 27. Sayfullayev Baxshillo Nematulloyevich NOQARDOSH TILLARDA O‘ZLASHTIRMA XABARNING IFODALANISHI (o‘zbek va fransuz tillari misolida)..... | 161 |
| 28. Alamov Shavkatjon TURISTIK ATAMALARNI QIYOSIY TADQIQ ETISH ZARURATI..... | 167 |
| 29. Kamarova Maftuna Umar qizi KOREYS TILINING XORIJIY TIL SIFATIDAGI TA’LIM SIYOSATI VA KOREYS TILINING TARQALISHIGA SABABCHI OMILLAR..... | 172 |
| 30. Sayfullayev Zuxriddin Asliddin o‘g‘li O‘ZBEK TILIDAGI “VIJDON” UMUMIY SEMALI ATOV BIRLIKLARINING SEMANTIK STRUKTURASI..... | 179 |



ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Baxshillo Nematulloevich Sayfullayev,
Buxoro davlat universiteti
Fransuz filologiyasi kafedrası o'qituvchisi
b.n.sayfullayev@buxdu.uz

NOQARDOSH TILLARDA O'ZLASHTIRMA XABARNING IFODALANISHI (o'zbek va fransuz tillari misolida)

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.0000000>

ANNOTATSIYA

Maqola kommunikativ maqsad kategoriyasining muhim yo'nalishlaridan biri o'zga nutq va uning ikkinchi turi bo'lmish o'zlashtirma gapning fransuz va o'zbek tillaridagi ifoda usullariga bag'ishlangan. Unda asosan diqqat e'tibor o'zlashtirma xabarning noqardosh tillarda yasalish usullari, mazmunan bo'linadigan turlari va gapdagi grammatik belgilariga qaratilgan. Shu bilan birga fransuz va o'zbek tillarida o'zlashtirma xabarning matndagi funksional-semantik xususiyatlariga izoh berilgan. O'zlashtirmalik sintaktik va morfologik yo'l bilan hosil bo'ladi. Morfologik yo'l bilan hosil bo'ladigan o'zlashtirmalik qiyoslanayotgan tillardan faqat o'zbek tiliga xos. Fransuz tilida o'zbek tilidan farqli ravishda o'zlashtirmalik faqat sintaktik yo'l bilan hosil bo'ladi. O'zbek tilida sintaktik yo'l bilan hosil bo'ladigan o'zlashtirma gap shaklan sodda, mazmunan murakkab gap bo'ladi. Fransuz tilida esa bunday gaplar to'ldiruvchi ergash gap orqali ifodalanadi. Bunda bosh va ergash gap kesimlari zamon jihatidan moslashadi.

Kalit so'zlar: o'zga nutq, o'zlashtirma nutq, matn, muallif nutqi, morfologik vosita, sintaktik usul, o'zlashtirma xabar, bosh gap, ergash gap, leksik birlik, shaxs va zamon moslashuvi.

Бахшилло Нематуллоевич Сайфуллаев,
Бухарский государственный университет
преподаватель кафедры французской филологии
b.n.sayfullayev@buxdu.uz

ВЫРАЖЕНИЕ ПОВЕСТВОВАТЕЛЬНОЙ КОСВЕННОЙ РЕЧИ НА НЕРОДСТВЕННЫХ ЯЗЫКАХ (на примере узбекского и французского)

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена одному из важных направлений категории коммуникативной цели - чужой речи и ее второму типу, т.е. косвенной речи во французском и узбекском языках. В ней основное внимание сосредоточено на способах формирования повествовательной косвенной речи в неродственных языках, которые делятся по содержанию и грамматических знаках в предложении. При этом объясняются функционально-семантические особенности повествовательной косвенной речи в тексте на французском и узбекском языках. Косвенность формируется синтаксическим и морфологическим путем. Морфологическая косвенность характерна для узбекского языка среди сравниваемых языков. Во французском языке, в

отличие от узбекского, косвенность формируется только синтаксически. В узбекском языке синтаксическая косвенность имеет грамматическую форму простого предложения, а по содержанию сложного. Во французском языке такие предложения выражаются придаточным предложением. В этом случае предложения главного и придаточного совпадают по времени.

Ключевые слова: чужая речь, косвенная речь, текст, авторская речь, морфологический прием, синтаксический прием, повествовательная косвенная речь, главное предложное, придаточное предложение, лексическая единица, лицо и согласование времён.

Bakhshillo Nematulloyevich Sayfullayev,
Bukhara State University
Teacher of the Department of French Philology
b.n.sayfullayev@buxdu.uz

EXPRESSION OF A NARRATIVE INDIRECT SPEECH IN UNRELATED LANGUAGES (on the example of Uzbek and French)

ABSTRACT

The article is devoted to one of the important directions of the category of communicative purpose - someone else's speech and its second type, i.e. indirect speech in French and Uzbek. It focuses on the ways of narrative indirect speech in unrelated languages, which are divided according to the content and grammatical signs in the sentence. At the same time, the functional and semantic features of narrative indirect speech in the text in French and Uzbek are explained. Indirectness is formed in a syntactic and morphological way. Morphological indirectness is characteristic of the Uzbek language among the compared languages. In French, unlike Uzbek, indirectness is formed only syntactically. In the Uzbek language, syntactic indirectness has the grammatical form of a simple sentence, but complex in content. In French, such sentences are expressed by a subordinate clause. In this case, the sentences of the main and subordinate clauses coincide in time.

Key words: someone else's speech, indirect speech, text, author's speech, morphological device, syntactic device, narrative indirect speech, main prepositional, subordinate clause, lexical unit, person and tenses.

Kirish: Tilshunoslikda o'zga gaplarga doir ilmiy maqola, monografiya, risolalar bosilib chiqqan, dissertatsiyalar yozilgan. Bundan tashqari mazkur mavzu o'zbek tilining ilmiy, akademik grammatikalari hamda oliygoh filologiya fakultetiga mo'ljallangan darslik va qo'llanmalarda turli darajada yoritilgan.

Asosiy qism: Zamonaviy tilshunoslikda kommunikativ maqsad kategoriyasining muhim yo'nalishlaridan biri o'zga nutq hodisasidir. O'zga nutq ifodasida so'zlovchi borliq haqida o'z fikrini emas, o'zgalarning fikri yoki suhbatini bayon qiladi. O'zga nutqning ifodalanishi turli uslubda turlicha bo'lib har biri o'ziga xos grammatik me'yorga ega. Qiyoslanadigan tillarda o'zga nutq 3 turga bo'lingan holda kommunikatsiya hodisasi sifatida shakllanadi. Bular:

- 1) **ko'chirma nutq** (*le discours direct*)
- 2) **o'zlashtirma nutq** (*le discours indirect*)
- 3) **o'ziniki bo'lmagan ko'chirma nutq** (*le discours indirect libre*)

Ko'chirma nutqda o'zganing nutqi shakl va mazmun jihatdan o'zgartirilmay tinglovchiga yetkaziladi. So'zlovchining nutqini so'zma-so'z berishning zarurati bo'lmagan paytda o'zlashtirma gap qo'llaniladi. Ba'zan o'zganing gapi ko'chirma gap bilan o'zlashtirma gap oralig'ida bo'ladi. Bunda o'zganing fikri muallif gapisiz-so'zlovchining ishtirokisiz bayon qilinadi, ya'ni muallif ko'chirma gapdagi so'zlovchi vazifasini bajaradi. Shuning uchun bunday gaplar o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap hisoblanadi [9, 294]. O'zga nutqning bu turi faqat badiiy adabiyotga xos bo'lib, muallif matniga qo'shilgan xolda asar qahramonlari fikr va tuyg'usini ifodalaydi, ularning ichki dunyosini ochib berishga xizmat qiladi.

O'zlashgan gap nutqda ko'p ishlatiladi. Chunki o'zga gapning bu turi katta jummalarni qisqartirib aytishga qulaylik tug'diradi. Natijada ko'chirma gap ikkinchi marta muallif tomonidan

o'zlashtiriladi, muallif birinchi marta ko'chirma gapni gapiga yedirib, o'z uslubida qayta ishlab chiqadi. Bu o'zgarish natijasida ko'chirma gap tarkibida kishilik olmoshi bo'lmaydi, fe'lining shaxs, son kategoriyalari ko'rsatilmaydi, butun gap muallif nomidan III shaxs orqali ifodalanadi [8, 501–502].

O'zlashtirma nutqda xabar manbai bir muncha mavhum bo'ladi va odatda kontekstual yoki matniy tahlil orqali aniqlanadi. O'zlashtirma gapda tinish belgilari xabarning ifoda qilinish holatiga nisbatan qo'llaniladi. Bundan tashqari, qo'shtirnoqlar ishlatilmaydi.

O'zbek tilida o'zlashtirmalik ikki usul bilan ifoda etiladi: biri sintaktik, biri morfologik.

Sintaktik yo'l bilan hosil bo'luvchi o'zlashtirmalikning eng kichik ko'rinishi ikkita o'zak, negizga qo'shimcha yoki yordamchi so'z qo'shish bilan yasaladi. Uning bir necha andozasi bor, barchasi ikki qismdan iborat bo'ladi. Shulardan biri (o'zlashtirma xabar)ning birinchi qismi to'rt yoki besh uzvdan, ikkinchi qismi ikki uzvdan tuziladi. Ikkinchi qism vazifasida qo'llanuvchi so'zning soni cheklangan, birinchi qismda esa morfologik vosita soni chegaralangan. Jumladan, kelishik qo'shimchasidan faqat bittasi yoki u bilan vazifadosh bo'lgan ko'makchi ishlatiladi: *Ol+gan+i+ni ayt+di. Ol + ish + i + ni ayt+di. Ol+moqchi+lig+i+ni ayt+di. Ol+gan+i haqida gapir+di* va hokazo[2, 10 b].

O'zbek tilida morfologik yo'l bilan hosil bo'ladigan o'zlashtirmalik mazmunan uch xil ko'rinishga ega: 1) o'zlashtirma buyruq, 2) o'zlashtirma xabar (istak va hokazo), 3) o'zlashtirma so'roq. Shundan kelib chiqib o'zlashtirmalikni gapning kommunikativ maqsad kategoriyasi a'zosi deyish mumkin. Gapning kommunikativ maqsad kategoriyasiga tilshunoslar N. Mahmudov va A. Nurmonov shunday izoh beradi: "Gapning kommunikativ kategoriyasi gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini ham o'z ichiga oladi. Gaplar kommunikativ maqsadiga ko'ra nutqiy aloqa turiga asoslanadi. Nutqiy jarayonda so'zlovchi ma'lum axborotni yoki istak-xohishini tinglovchiga bayon qilishni, ma'lum voqea, hodisa haqida tinglovchidan so'rashni, suhbatdoshini ma'lum axborotni bayon qilishga yoki ma'lum harakatni yuzaga chiqarishga da'vat kilishni maqsad qiladi. So'zlovchi o'zining maqsadiga muvofiq keladigan gap shakllarini tanlaydi. Shunga muvofiq, gaplar ifoda maqsadiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: 1) darak gaplar, 2) so'roq gaplar, 3) buyruq gaplar, 4) istak gaplar" [6, 26, 38].

O'zbek tilida o'zlashtirma xabar (istak va hokazo), o'zlashtirma buyruq, o'zlashtirma so'roq ma'nolarni ifodalashda quyidagi vositalar qo'llaniladi: *-(i)bdi, -adi (-ydi), -gan, -gan ekan, -gan emish, -(a)r ekan, -(a)r emish, -(a)yotgan ekan, -(a)yotgan emish, -adigan (-ydigan) ekan, -adigan (-ydigan) emish, -moqchi ekan, -moqchi emish, -sin ekan, -sin emish* shakllari hamda *ot va boshqa so'z turkumlari + ekan, emish* to'liqsiz fe'li va b[4, 21, 23 b]:

O'g'lim aytdi, do'stlari bilan gaplashibdi.

Dadam aytdilar, darsingni qilar ekansan.

O'qituvchi so'rayapti, talabalar tadbirga kelar ekanmi?

Bu vositalar o'zlashtirma buyruq, o'zlashtirma xabar va o'zlashtirma so'roqni gap va mikromatnda ifodalaydi.

Frantsuz tilida *le discours indirect* (o'zlashtirma nutq)da og'zaki yoki yozma nutq morfosintaktik moslashadi. O'zganing gapini grammatik va ayrim leksik xususiyatlarini o'zgartirgan holda o'zlashtirib bayon qilib berishi *o'zlashtirma nutq* deyiladi. O'zlashtirma nutq o'zganing gapi yoki fikrini o'zlashtirib uni nutq feli (dire, demander, etc) orqali ergashgan qo'shma gap shaklida ma'nosini uzatishga xizmat qiladi [1, 254-255] :

« Je ne peux pas dire que je me sente allégé ni content » (J.-P. Sartre).

« Dis-moi si tu aimes mes cheveux... » (B. Vian).

O'zlashtirmalik nutqiy maqsadu vazifaga qarab *o'zlashtirma xabar, o'zlashtirma so'roq va o'zlashtirma buyruq* (undash) tarzida namoyon bo'ladi. O'zlashtirmalik zamirida *eshitilganlik* yotganidan fikri, buyrug'i bayon qilinadigan shaxs (xabar manbai)ning qanday ifodalanishiga alohida e'tibor beriladi.

Frantsuz tilida o'zbek tilidan farqli o'laroq o'zlashtirmalik fakat sintaktik yo'l bilan amalga oshiriladi. Sintaksis nuqtai nazaridan o'zlashtirma gap to'ldiruvchi ergash gapga mos kelib bunday

qo'shma gapda zamonlar moslashadi. O'zlashtirma gap darak, buyruk va so'rok formalarda bo'ladi [5, 227, 228].

O'zlashtirma nutq o'zga nutqni uzatishning yana bir usulidir. Bunda u muallif nutqiga grammatik jihatdan moslashadi. Aytilgan gap odatda muallif gapi tarkibidagi nutq fe'li (*masalan, dire-aytmoq, s'écrier-hayqirmoq, demander-so'ramoq, exiger-talab qilmoq va hokazo*) ning tobe bo'lagi sifatida shakllanadi va ergashgan qo'shma gap hosil bo'ladi. Bunda muallif nutqi bosh gap funksiyasini bajarsa, aytilgan gap ergash gap vazifasida keladi va ular *que* bog'lovchisi va *si, de* hamda bog'lovchi vazifasida keladigan boshqa leksik birliklar bilan bog'lanadi.

Il a exigé que tous les employés ont interrompu ma pause déjeuner et a procédé à la salle de réunion.

Yana bir misol:

J'ai dit que je serai de retour en retard et je n'ai pas eu à attendre.

Zamon, shaxs va shu kabi boshqa moslashuvlar o'zlashtirma nutqning muhim jihatlaridan biridir. Grammatik nuqtai nazardan bayon etuvchi nutqiga bo'ysunuvchi aytilgan gap ergash gap shaklini oladi va hikoyaning bir qismi bo'lgan holda odatda o'tgan zamonda keladi.

Jean prétend qu'il est malade. Il a ajouté qu'il n'irait pas travailler aujourd'hui, et il a eu le culot de me demander d'appeler le médecin !

O'zlashtirma va ko'chirma nutqning konstruktsiyalari bir-biriga ma'lum darajada o'xshaydi. Ular ikki qismdan iborat bo'lib, biri muallif nutqi, ikkinchisi esa o'zganing xabari, buyrug'i yoki so'rog'idir. Ko'chirma nutqning o'zlashtirma nutqdan asosiy farqi shundaki, muallifning ko'chirma nutq qismi nisbatan mustaqil bo'lib, nutqda ma'lum bo'lgan turli xil stilistik vositalar orqali etkazilishi mumkin.

Fransuz tilida bog'lovchi tanlash, zamon va shaxs moslashuvlari o'zlashtirma nutqning muhim jihatlaridan biridir.

O'zlashtirma nutqda aytilgan gap turiga qarab turli xil bog'lovchi vazifasidagi leksik birliklar (*que, si, de*) qo'llaniladi.

Darak va undov gaplar o'zlashtirma gap sifatida berilganda "*que*" (**a, e, i, o, u, y** va **h** harflar bilan boshlangan so'zlardan oldin **qu'**) bog'lovchisi qo'llaniladi:

Le journaliste dit qu'il y a une manifestation contre la réforme.

O'zbek tilida o'zlashtirma xabar ma'nosini ifodalashda *-(i)bdi, -adi (-ydi), -gan, -gan ekan, -gan emish, -(a)r ekan* kabi vositalar qo'llaniladi.

-(i)bdi shakli o'zlashtirma xabarni ifodalash uchun III shaxsda ko'p qo'llanadi. Negaki III shaxs nutqiy amalda ishtirok etishi shart bo'lmaydi. II shaxs tinglovchi sifatida nutqiy amal a'zosi bo'lganligidan uning fikrini o'zlashtirib bayon qilish zarurati kamroq bo'ladi. I shaxs nutqiy amalda so'zlovchi vazifasini bajarganligidan o'z fikrini o'zlashtirib bayon qilishga ehtiyoj deyarli tug'ilmaydi [2, 57 b].

-(i)bdi shaklining mazmuni va sintaktik xususiyatini aniqlash uchun uzvli tahlil bilan birga kontekstual va matniy tahlil zarur. Uzvli tahlil asosida *shaxs, zamon, bevosita kuzatilmaganlik, senlash, hurmat* ma'nolarini, kontekstual tahlil asosida uni gapda qo'llagan holda bu ma'nolarni *oydinlashishi (konkretlashishi), turli ko'rinishi, ta'kidlanishi yoki chekinishi* sabablarini aniqlash mumkin bo'ladi [3, 35].

-Kecha oqshom qimmatli mehmonimiz bilan noxush voqea sodir bo'libdi. Xuroson, Fors, Mozondaronda cheksiz izzat-e'tiborga loyiq bo'lgan, har bir shahzoda, xon yoki sulton o'z saroyida bajonidil uni kutib olishni orzu qiladigan bu hurmatli zotni, kecha bizning Samarqand ko'chalaridan birida behurmat qilishibdi. (Abduqodir Ko'chiboyev. Samarqand).

Ushbu misolga *-ibdi* shaklning birinchi qismi (fe'lning o'zagi) insonga xos harakatni bildiradi. Bu *lug'aviy ma'no* deb ataladi. Shaklning ikkinchi qismi *-(i)bdi* orqali bir necha grammatik ma'no ifodalanadi. Bular quyidagilar:

a) *o'tgan zamon* ma'nosi, negaki harakat nutq vaqtidan oldin sodir bo'lgan.

b) *kommunikativ ma'no* ko'rinishi, nutqiy amal a'zosi (so'zlovchi, tinglovchi) bo'lolmaydigan shaxsni anglatishdir. Bu ma'no grammatikada III shaxs deb yuritiladi.

c) *o'zga shaxsning son-miqdori ma'nosi*, qo'shimcha uning birlik yoki ko'plik ekanini aniq ko'rsatmaydi.

d) *so'zlovchining o'zga shaxsga ijobiy munosabati* (hurmat), qo'shimchadan so'zlovchining o'zga shaxsni hurmat qilish yoki qilmasligini aniqlab bo'lmaydi.

e) *bevosita kuzatilmaganlik ma'nosi*, -ibdi qo'shimchasidan so'zlovchining o'zga shaxs amalga oshirgan ish-harakatni bevosita kuzatmaganligi sezilib turibdi. Ammo xabar manbai aniq emas. Aniqroq qilib aytganda, harakatni so'zlovchi tinglovchining o'zidan eshitib o'zlashtirib bayon qilayotganligi yoki u haqda boshqa manbaga asoslanib xabar berayotganligi aniq emas. Bu esa uchta ma'noning ko'rinishi yoki belgilanganlik darajasini aniqlash maqsadida boshqa gap(lar), kontekst yoki mikromatnga nazar tashlashni taqozo etadi.

Yana shuni ta'kidlash joizki ushbu misolda o'zlashtirma xabar mavjud, ammo xabar manbai o'zlashtirma gap tarkibida ko'rsatilmagan. Bundan ushbu gapning mazmunan mikromatnning oldingi qismi bilan uzviy bog'liqligi ayon bo'ladi, chunki xabar manbai (*Abu Tohir*) aynan oldingi mikromatn tarkibida keltirilgan. Bundan tashqari ushbu misolda ish-harakat subyekt (o'zga shaxs)ning bittadan ko'pligi anglashiladi. *-(i)bdi* shaklining subyekt faqat qo'shimchadan anglashiladi, so'z (ot yoki olmosh) bilan ifoda etilmagan. Bu bir jihatdan ushbu qismning mikromatn oldingi qismi bilan mazmunan bog'langanligi morfologik vosita orqali amalga oshayotganligini ko'rsatsa, boshqa jihatdan tejamkorlik namoyon bo'layotganligidan dalolat beradi. *-(i)bdi* shakli boshqa fe'llardan yasalganda ham mazkur ma'no (ko'plik) namoyon bo'laveradi.

-Notre éminent visiteur a eu une mésaventure, hier soir. Lui qui est honoré dans le Khorassan, le Fars et le Mazandaran, lui que chaque cité souhaite accueillir dans ses murs, que chaque prince espère attirer vers sa cour, il a été molesté, hier, dans les rues de Samarcande ! (A. Malouf. Samarcande. 25p)

Misolning fransuzcha variantida o'zlashtirma xabarning ifodasi o'zbek tilidan farqli o'laroq sintaktik yo'l bilan amalga oshirilgan bo'lib, o'zbek tilida felning o'zagi va *-ibdi* qo'shimchasi ifodalab kelgan grammatik ma'nolar fransuz tilida quyidagicha aks etadi :

- o'tgan zamon ma'nosi
- kommunikativ ma'nosi III shaxsda kelganligi
- o'zga shaxsning son-miqdori ma'nosi o'zlashtirma gap tarkibida *il* yani *u* olmoshi orqali berilgan.
- bevosita kuzatilmaganlik ma'nosi sintaktik yo'l bilan hosil bo'ladigan o'zlashtirma gap tarkibining o'zida mavjud.

Xulosa. O'zlashtirmalik sintaktik va morfologik yo'l bilan hosil bo'ladi. O'zbek tilida o'zlashtirmalik ikkila usul bilan ifoda etiladi. Sintaktik yo'l bilan hosil bo'luvchi o'zlashtirmalikning eng kichik ko'rinishi ikkita o'zak, negizga qo'shimcha yoki yordamchi so'z qo'shish bilan yasaladi. O'zbek tilida morfologik yo'l bilan hosil bo'ladigan o'zlashtirmalik mazmunan uch xil ko'rinishga ega: 1) o'zlashtirma buyruq, 2) o'zlashtirma xabar (istak va hokazo), 3) o'zlashtirma so'roq. O'zbek tilida o'zlashtirma xabar ma'nosini ifodalashda *-(i)bdi*, *-adi* (*-ydi*), *-gan*, *-gan ekan*, *-gan emish*, *-(a)r ekan* kabi vositalar qo'llaniladi.

Fransuz tilida esa o'zlashtirmalik hodisasi sintaktik yo'l bilan amalga oshiriladi. Sintaksis nuqtai nazaridan o'zlashtirma gap to'ldiruvchi ergash gapga mos kelib, muallif nutqiga grammatik jihatdan moslashadi. Fransuz tilida o'zlashtirma xabarning ifodasi o'zbek tilidan farqli o'laroq sintaktik yo'l bilan amalga oshirilib, o'zbek tilida felning o'zagi va *-ibdi* qo'shimchasi ifodalab kelgan grammatik ma'nolarda farqlar ko'zga tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Hervé-D. Béchade. *Syntaxe du français moderne et contemporain (Fondamental)*. –Paris : France, 1993. –338.
- Jumayev E.B. O'zbek adabiy tilida o'zlashtirmalik va matn. Dissertatsiya. -Buxoro 2021. 155 b
- Jukayev E.B. Monografiya. – Buxoro. -2022. 98 b.

4. Zikrillayev G . Ruh va til. –Toshkent: Fan, 2018. – 464 b
5. Маллина Л. Е., Андрейчикова Л. П., Турниёзов Ў. Француз тили грамматикаси (Морфология, синтаксис). – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. -280 б.
6. Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 232 б.
7. Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлари филология факультетлари талабалари учун дарслик. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 391 б.
8. O‘zbek tili grammatikasi. II tom. Sintaksis. – Toshkent: Fan, 1976.– 560 b.
9. Ғуломов А.Ғ., Асқарова М.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Тошкент: Ўқитувчи, 1965. – 315 б.
10. Malouf A. Samarcande. – Paris, -1988. -315 b
11. Ko‘chiboyev A. Samarqand. Tarjima. -1998
12. Jumayev E. O‘zbek adabiy tilida so‘roq gap va o‘zlashtirmalik //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 27. – №. 27.
13. Khudoev S. The riddle genre in world literature and the history of research on it //International journal of language learning and applied linguistics. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 13-15.
14. Noqardosh tillarda o‘zlashtirma xabar va uning qiyosiy tahlili. Filologiya masalalari ilmiy jurnali, O‘zDJTU, 2022, Vol. 43, No. 4. 19-37-b.
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1-gWU48AAAAAJ&citation_for_view=1-gWU48AAAAAJ:Se3iqnhoufwC
15. Ўзбек тилида ўзлаштирама нутқ ва гап. International Scientific and Practical Conference "Modern philological paradigms: interaction of traditions and innovations II", www.myscience.uz. 18.03.2022, p. 72-77.
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1-gWU48AAAAAJ&citation_for_view=1-gWU48AAAAAJ:W7OEmFMylHYC
16. Ruziev Y. O ‘ZBEK TILIDA O ‘ZLASHTIRMA NUTQ VA GAP //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 30. – №. 30.
17. Sayfullayev B. NOQARDOSH TILLARDA O‘ZLASHTIRMALIK: o‘zbek va fransuz tillari misolida //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 29. – №. 29.
18. Sayfullayev B. FRANSUZ TILIDA O ‘ZGA NUTQ VA UNING IFODA USULLARI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 31. – №. 31.
19. Sayfullayev B., Shomurodova L. O‘ZLASHTIRMA NUTQ VA O‘ZLASHTIRMA SO‘ROQ //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – Т. 1. – №. 21.
20. Sayfullayev B., Saidova G. DISCOURS DIRECT EN FRANÇAIS ET SES MODES D’UTILISATION //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 3. – С. 622-624.